
FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

IJTIMOIY-GUMANITAR SOHALARGA IXTISOSLASHGAN
ILMIY JURNAL



1/2026

FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR

ilmiy-amaliy metodologik jurnal

МЕЖДИСЦИПЛИНАРНЫЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

научно-практический и методологический журнал

INTERDISCIPLINARY SCIENTIFIC RESEARCH

scientific-practical and methodological journal



№ 1/2026

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy guvohnoma asosida faoliyat yuritadi.

BOSH MUHARRIR:
Ashurov Ramzidin Ramazonovich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI
Ismatulloyev Abdullo Nasrulloyevich
psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

TAHRIRIYAT KENGASHI:
Rejep Uzyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Blinova Ye.E. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Abdullayeva B.S. – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Ibragimova G.N. – pedagogika fanlari doktori, professor
Mamurov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Filippova O.G. – pedagogika fanlari doktori, professor (Rossiya)
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari doktori(DSc), professor
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Umarova N.Sh. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Ismoilova N.Z. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Atabayeva N.B. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Jabborov X.X. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Akramov M.R. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Tuychieva S.M. – psixologiya fanlari doktori (DSc), professor
Gadoyeva M.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasulov Z.I. – filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Qurbonboyev A.N. – psixologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Taniyeva G. M. – tarix fanlari doktori, professor
Davlatova S.T. – tarix fanlari doktori, professor
Qurbonova M. B. – tarix fanlari nomzodi, professor
Turdiyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Yuldashev S.R. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Botirova D.B. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Alimova Ye.G. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Джексембаева Г.С. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) (Qozog‘iston)
Jalilov H.N.– psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Jalilov N.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Vahobov A.A. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Raxmatova M.M. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xalilova R.R. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Bobojonov Sh.U. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sharipov Sh.F. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bo‘tayev J.Sh. – tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Bobojonova F. X. – tarix fanlari nomzodi, dotsent

Mas’ul muharrir:
Xayitov Xayotjon Xikmat o‘g‘li

RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA'SIRCHANLIK MUAMMOLARI

Xalilova Ruxsora Raupovna
Buxoro davlat pedagogika instituti
O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi dotsenti, f.f.f.d. (PhD)
E-mail: xaruxsora1982@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada rahbar nutqining kommunikativ va pragmatik xususiyatlari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Maqolada motivatsion nutqning nazariy asoslari, uning tarkibiy qismlari hamda amaliy qo'llanilish usullari yoritilgan. Rahbar nutqining auditoriyaga ta'sir ko'rsatish mexanizmlari, ishontirish strategiyalari va empatik muloqot vositalari ilmiy nuqtai nazardan tadqiq etilgan.

Kalit so'zlar: rahbar nutqi, motivatsiya, kommunikativ xususiyatlar, pragmatika, motivatsion til nazariyasi, auditoriya, ishontirish, empatik til, ma'no yaratuvchi til.

Аннотация: В данной научной статье системно анализируются коммуникативные и прагматические особенности речи руководителя. Освещаются теоретические основы мотивационной речи, её структурные компоненты и практические способы применения. С научной точки зрения исследуются механизмы воздействия речи руководителя на аудиторию, стратегии убеждения и средства эмпатической коммуникации.

Ключевые слова: речь руководителя, мотивация, коммуникативные особенности, прагматика, теория мотивационного языка, аудитория, убеждение, эмпатический язык, язык создания смысла.

Abstract: This scientific article systematically analyzes the communicative and pragmatic features of leadership speech. The article highlights the theoretical foundations of motivational speech, its structural components, and practical methods of application. The mechanisms of audience influence, persuasion strategies, and empathetic communication tools in leadership discourse are examined from a scientific perspective.

Keywords: leadership speech, motivation, communicative features, pragmatics, motivational language theory, audience, persuasion, empathetic language, meaning-making language.

KIRISH

Bugungi kunda rahbar nutqining kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini o'rganish tilshunoslik, psixologiya hamda boshqaruv nazariyasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Rahbar nutqi nafaqat axborot yetkazish vositasi,

balki jamoani boshqarish, motivatsiya berish, ishontirish va umumiy maqsad sari safarbar etishning muhim kommunikativ omilidir. Ayniqsa, globallashuv va raqamli kommunikatsiya jarayonlari kuchaygan sharoitda rahbarning nutqiy kompetensiyasi tashkilot samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biriga aylanmoqda.

Motivatsion nutq rahbarning pragmatik maqsadlarini amalga oshirishda muhim vosita bo‘lib, u auditoriyaning hissiy holati, ehtiyojlari va qadriyatlariga ta’sir ko‘rsatish orqali ijtimoiy-psixologik muhitni shakllantiradi. Shu jihatdan rahbar nutqining kommunikativ-pragmatik xususiyatlarini ilmiy asosda tahlil qilish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi rahbar nutqining kommunikativ va pragmatik xususiyatlarini tizimli tahlil qilish, motivatsion nutqning nazariy asoslari hamda uning amaliy qo‘llanilish mexanizmlarini yoritishdan iborat.

MAVZUNING O‘RGANILGANLIGI VA METODOLOGIYASI

Motivatsion til nazariyasi XX asr oxirida Jacqueline Mayfield va Milton Mayfield tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, rahbar nutqining uchta asosiy o‘lchamini ajratadi. Ushbu nazariya rahbar va xodim o‘rtasidagi muloqotni tahlil qilishning tizimli asosini yaratadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarlar eng ko‘p yo‘naltiruvchi tildan foydalanadi, empatik til kamroq qo‘llaniladi, ma’no yaratuvchi til esa eng kam uchraydi. Biroq, uchala komponentning muvozanatli qo‘llanilishi eng yuqori motivatsion samarani beradi [2].

Alan Monroe tomonidan 1930-yillarda ishlab chiqilgan motivatsion ketma-ketlik bugungi kunda ham ishontiruvchi nutqning eng samarali modellaridan biri hisoblanadi. Ushbu model besh bosqichdan iborat:

1-bosqich: Diqqatni jalb qilish. Auditoriyaning “avtopilot” rejimini to‘xtatish, ularning e’tiborini muammoga qaratish. Masalan, Steve Jobs 2007-yilda iPhone taqdimotida: “Bugun Apple telefonni qayta ixtiro qiladi”, degan jumla bilan boshlagan edi.

2-bosqich: Ehtiyojni yaratish. Auditoriyaga mavjud holat va kerakli holat o‘rtasidagi farqni his qildirish. Samarali rahbarlar muammoni aniq va dolzarb qilib ko‘rsatadi.

3-bosqich: Qoniqishni taklif qilish. Muammoning yechimini taqdim etish.

4-bosqich: Tasavvurni jonlantirish. Auditoriyaga yechim qanday ishlashini va qanday ijobiy natijalarga olib kelishini ko‘rsatish.

5-bosqich: Harakatga undash. Aniq va o‘lchanadigan harakatlarni taklif qilish.

Pragmatika nuqtai nazaridan rahbar nutqi “so‘z bilan ish qilish”ning eng yorqin namunasidir. Rahbar nutqida pragmatik maqsad - tinglovchilarning fikri yoki

xatti-harakatini o‘zgartirishdir. Bunga erishishda quyidagi pragmatik omillar muhim rol o‘ynaydi:

- manba ishonchliligi - rahbar nutqining samaradorligi uning obro‘si, tajribasi va xodimlar oldidagi ishonch darajasiga bog‘liq;
- auditoriyani bilish - motivatsion nutq auditoriyaning ehtiyojlari, qadriyatlari va psixologik holatini hisobga olishni talab qiladi;
- kontekstga moslashish - bir xil nutq turli kontekstlarda turlicha qabul qilinishi mumkin.

Mazkur tadqiqotda kommunikativ-pragmatik yondashuv, motivatsion til nazariyasi hamda pragmalingvistika tamoyillaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida rahbar nutqining motivatsion, empatik va pragmatik xususiyatlari nazariy tahlil qilindi.

Shuningdek, rahbar nutqining auditoriyaga ta’sir ko‘rsatish mexanizmlari, ishontirish strategiyalari va kommunikativ vositalari qiyosiy tahlil asosida o‘rganildi. Tadqiqotda tavsifiy, interpretativ hamda pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rahbar nutqining motivatsion kommunikativ xususiyatlaridan biri ilhomlantiruvchi va yo‘naltiruvchi nutq hisoblanadi. Samarali rahbar nutqi ikki asosiy turga ajratiladi: ilhomlantiruvchi (inspired) va yo‘naltiruvchi (directed) nutq. Ilhomlantiruvchi nutq maqsadlar, ambitsiyalar va umumiy qadriyatlar haqida gapiradi hamda jamoa a’zolarining yuqori darajadagi motivatsiyasini shakllantiradi. Yo‘naltiruvchi nutq esa aniq vazifalar, talablar va mezonlarni belgilash uchun xizmat qiladi.

John F. Kennedyning 1962-yilda Oyni zabt etish bo‘yicha nutqi ilhomlantiruvchi nutqning klassik namunasi hisoblanadi: “Biz bu o‘n yillikda Oyni zabt etishni tanlaymiz... chunki bu qiyin” [7].

Zamonaviy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, rahbarning hissiy intellekti uning nutqining motivatsion samaradorligiga bevosita ta’sir qiladi. Empatik kommunikatsiya - bu rahbarning xodimlarning hissiy holatini tushunish va ularga mos javob qaytarish qobiliyatidir. Empatik nutqning asosiy elementlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Xushomad va maqtov - xodimlarning mehnatini tan olish va ularga hurmat ko‘rsatish. O‘zbek iborasida aytilganidek: “Shu beminnat ignachaning ham rahmatga zor qulog‘i bordir”. Ushbu fikr har bir inson, hatto eng kamtarin ishni bajaruvchi ham e’tirofga muhtoj ekanligini anglatadi.

2. Qo‘llab-quvvatlash - qiyin vaziyatlarda xodimlarning yonida ekanligini bildirish.

3. Tinglash qobiliyati - faol tinglash va qayta aloqani ta’minlash.

Empatik nutqni qo‘llaydigan rahbarlarning xodimlari yuqori darajadagi ishdan qoniqish va tashkilotga sodiqlikni namoyon qiladi.

Ma’no yaratuvchi nutq esa rahbarning eng kam qo‘llanadigan, biroq eng samarali kommunikativ vositalaridan biridir. Ushbu nutq turi tashkilotning missiyasi, qadriyatlari va yuqori maqsadlarini xodimlarning shaxsiy qadriyatlari bilan bog‘laydi.

Rahbar nutqining pragmatik xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Xabardor qilish - axborot yetkazish va tushuntirish;
2. Ishontirish - o‘z nuqtai nazarini qabul qildirish;
3. Harakatga undash - aniq amaliy qadamlarni boshlash;
4. Birlashtirish - jamoaviy ruhni shakllantirish;
5. O‘zgartirish - xodimlarning munosabati va xatti-harakatlarini tubdan o‘zgartirish.

Har bir pragmatik maqsadga erishish uchun turli strategiyalar qo‘llaniladi. Masalan, harakatga undash uchun “biz” olmoshi va buyruq maylidagi fe’llardan foydalanish samarali hisoblanadi [5].

- Ishontirish: dalillar keltirish, statistik ma’lumotlar va ekspert fikridan foydalanish - “Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki...”
- Harakatga undash: to‘g‘ridan-to‘g‘ri murojaat, buyruq mayli va ikkinchi shaxs olmoshlari - “Ertadan boshlaymiz!”
- Birlashtirish: inkluziv til, “biz”, “bizning” olmoshlari - “Biz bir jamoa bo‘lib, bu vazifani bajaramiz.”
- O‘zgartirish: qarama-qarshi qo‘yish va parallelizmlar - “Ilgari shunday edi, endi boshqacha bo‘ladi.”

Nutqning pragmatik samaradorligi nafaqat rahbarning mahoratiga, balki auditoriyaning xususiyatlariga ham bog‘liq. Auditoriyani motivatsiyalashda ularning ehtiyojlari, qadriyatlari, yosh xususiyatlari va psixologik holatini hisobga olish muhim ahamiyat kasb etadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, rahbar nutqi kommunikativ va pragmatik jihatdan murakkab tizim bo‘lib, u jamoani boshqarish, motivatsiya berish va tashkilot maqsadlariga yo‘naltirishda muhim vosita hisoblanadi. Motivatsion til nazariyasi asosida rahbar nutqining yo‘naltiruvchi, empatik va ma’no yaratuvchi komponentlari samarali kommunikatsiyaning asosiy omillari ekanligi aniqlandi.

Shuningdek, empatik kommunikatsiya va hissiy intellekt rahbar nutqining motivatsion samaradorligini oshirishi, ilhomlantiruvchi nutq esa jamoa a’zolarida yuqori darajadagi ichki motivatsiyani shakllantirishi kuzatildi. Pragmatik

strategiyalardan o‘rinli foydalanish rahbarning auditoriyaga ta’sirini kuchaytiradi va tashkilotdagi ijtimoiy-psixologik muhitni yaxshilaydi.

Tadqiqot asosida quyidagi takliflarni ilgari surish mumkin:

- rahbarlarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan treninglarni keng joriy etish;
- motivatsion va empatik nutq texnologiyalarini boshqaruv amaliyotiga integratsiya qilish;
- rahbarlarning hissiy intellektini rivojlantirishga yo‘naltirilgan psixologik dasturlarni ishlab chiqish;
- tashkilotlarda sog‘lom kommunikativ muhitni shakllantirishga xizmat qiluvchi pragmatik strategiyalardan samarali foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Baldoni, J. (2024). The Leaders Guide to Speaking with Presence. Mindtools.
2. Mayfield, J., Mayfield, M. (2018). Motivating Language Theory: Effective Leader Talk in the Workplace. Palgrave Macmillan.
3. Mayfield, J., Mayfield, M. (2018). Motivating Language Theory: Effective Leader Talk in the Workplace. CEU Library.
4. Mo`minov, S.M., Mo‘minov, Sh.S. Shaxs ma’naviyatini o‘stirishda rag‘batning o‘rni va uning rahbar muloqot xulqida namoyon bo‘lishi. Innovatsion tadqiqotlar, Maxsus son 2023y, 689-694.
5. Ravinal, R. (2026, February 19). How Great Speakers Make People Act. Radio & Television Business Report.
6. Lordson, T.E. (2024, November 11). 8 Secrets of Great Leadership Communication. LinkedIn.
7. Guttmann, B. (2024, August). Use Your Message to Inspire. Toastmaster Magazine.

MUNDARIJA

1.	ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ В ПСИХОЛОГИЧЕСКОМ СОПРОВОЖДЕНИИ ПОДРОСТКОВ: ДИАГНОСТИЧЕСКИЙ И ПРОФИЛАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ Алимова Елена Геннадьевна	4
2.	G. BARDIYERNING TOLERANTLIK UCH KOMPLEKSLI MODELI TAVSIFI Bafayev Muxiddin Muxammadovich	14
3.	MAKTAB VA SINF MUHITINING KONTEKSTIDA O‘QUVCHILARNING ICHKI NAZORAT LOKUSINING RIVOJLANISH Celal Alğan	19
4.	OILADA OTA-ONA FARZAND MUNOSABATLARINI MILLIY TARBIY ASOSIDA TASHKIL QILISHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI Jabborov Xazrat Xusenovich	27
5.	LIDERLIK PSIXOLOGIYA FANINING TADQIQOT PREDMETI SIFATIDA Jumanazarov Bekzod Begnazarovich	37
6.	SHAXS KOGNITIV ONTOGENEZI VA AVLODLAR NAZARIYASI L.S. Tursunov	45
7.	SOCIAL-PSYCHOLOGICAL MECHANISMS OF DEVELOPING HR MANAGERS PROFESSIONAL COMPETENCIES IN THE CONTEXT OF DIGITAL TRANSFORMATION M.M. Abdukarimov	53
8.	YUQORI SINF O‘QUVCHILARIDA SUITSIDAL XAVF DARAJASINI PASAYTIRISHDA PSIXOPROFILAKTIK VA PSIXOKORREKSION METODLARNING EKSPERIMENTAL TAHLILI Qodirova Shoxidabonu Sobirjon qizi	57
9.	OILAVIY QADRIYATLAR VA PROSOTSIAL XULQ-ATVOR SHAKLLANISHI Rasulova Dildora Shuhratovna	65
10.	QARISH JARAYONINING PSIXOFIZIOLOGIK VA EPIGENETIK MEXANIZMLARI: NAZARIY TAHLIL VA AMALIY YONDASHUVLAR Umirov Shaxrizod O‘rol o‘g‘li	69
11.	PSYCHOLOGICAL FACTORS IN THE FORMATION OF NEW MORAL VALUES IN STUDENTS Umirzakova Nargiza Ismailovna	74
12.	ВОЗРАСТНЫЕ ОСОБЕННОСТИ КРИМЕНАЛЬНОГО ПОВЕДЕНИЯ У ПОДРОСТКОВ Махмудова Д.А.	78

MUNDARIJA

13. KREDIT-MODUL TIZIMIDA TARBIYAVIY ISHLARNI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI
Ibragimova Gulsanam Nematovna 82

14. TALABALARDA TANQIDIY FIKRLASHNI RIVOJLANTIRISH O‘QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISHNING ASOSIY OMILI
Jalilov Nodirjon Azamatovich 89

15. SUN’IY INTELLEKT VOSITALARIDAN TARBIYAVIY JARAYONDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI
Karimova Barno Ergashevna 95

16. TA’LIM SIFATINI BOSHQARISHNING XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA KVALIMETRIK PARAMETRLARINI TAKOMILLASHTIRISH
Karimova M.M. 102

17. CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG‘ICH TAYYORGARLIK FANI O‘QITUVCHISINING KASBIY KOMPETENSIYASI VA METODIK MAHORATI
Uzoqov A.A. 110

18. INNOVATSION TARBIYA TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA TALABALARNING MA’NAVIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISH
Xabibullayeva Shaxlo Ulmesovna 116

19. ARAB DAVLATLARI TARIXSHUNOSLIGINI O‘QITISHNING METODIK ASOSLARI
Axmedov Sanjar Bektemirovich 122

20. XIX ASR IKKINCHI YARMIDA ZARAFSHON OKRUGIDA SOLIQ MUNOSABATLARI VA ROSSIYA IMPERIYASI MUSTAMLAKACHILIK SIYOSATI
Bo‘tayev Jonibek Shodiyevich 129

21. MUSTAQILLIK YILLARIDA XORAZMDA URUSH QATNASHCHILARINI E’ZOZLASH SIYOSATI
Ishchanova Oybika Farhod qizi 136

22. AFG‘ONISTONDA XX ASRNING 90-YILLARDA HOKIMYAT UCHUN KURASHDA ETNOSIYOSIY OMILNING ROLI
Sharipov Shohruz Faxriddin o‘g‘li 143

23. JADIDLAR QARASHLARIDA XOTIN-QIZLAR TA’LIMI MASALASI
Xabibullo Xoji Muxammadyusuf Alisher o‘g‘li 151

24. RAHBAR NUTQINING KOMMUNIKATIV VA NUTQIY TA’SIRCHANLIK MUAMMOLARI
Xalilova Ruxsora Raupovna 158

Materiallar ko‘chirib bosilganda **“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar”** jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart.

***

Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.
Ilmiy maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqiladi. Tahririyat a’zolarining jurnal ruknlariga mos kelmagan, ko‘rsatilgan talablarga mos bo‘lmagan maqolalarni nashr qilmaslik huquqi bor.

***

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” jurnali 05.05.2026-yildan O‘zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Axborotlashtirish va telekommunikatsiyalar sohasida nazorat inspeksiyasi tomonidan 2026-yil 5-may sanasida davlat ro‘yxatidan o‘tkazilib, 1564147-sonli rasmiy litsenziya asosida faoliyat yuritadi.

***

Yuborilgan maqolalarning barchasi “Antiplagiat” tizimida tekshiriladi.
Jurnalda nashr etilgan materiallar va ma’lumotlarning to‘g‘riligiga mualliflar mas’ul.

“Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” ilmiy-amaliy metodologik jurnali barcha ta’lim muassasalari va ilmiy izlanuvchilarni hamkorlikka chorlaydi.

Muassis: “Fanlararo ilmiy tadqiqotlar” MCHJ
Tahririyat manzili: Toshkent shahar Sergili tumani Yangi Bunyodobod MFY 8-uy
https://fanlararotadqiqotlar.uz/

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VAZIRLIGI HUZURIDAGI
AXBOROTLASHTIRISH VA TELEKOMMUNIKASIYALAR SOHASIDA NAZORAT INSPEKSIYASI

ГУВОҲНОМА

№1564147 Фаол

"FANLARARO ILMIY TADQIQOTLAR" MAS'ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT

Оммавий ахборот воситаси давлат рўйхатидан ўтказилганлиги тўғрисидаги гувоҳнома

ЛИЦЕНЗИЯ РЕЕСТРИ БЎЙИЧА ТАРТИБ РАҚАМИ
C-5669890

СТИР (СОЛИҚ ТЎЛОВЧИНИНГ ИДЕНТИФИКАЦИОН РАҚАМИ)
312386344

АМАЛ ҚИЛИШ МУДДАТИ
05.05.2026дан - - чексиз

ЖОЙЛАШГАН МАНЗИЛИ (ПОЧТА МАНЗИЛИ)
Тошкент шаҳри, Сирғали тумани, Янги Бунёдобод МФЙ, Сергели 6а мавзеси, 8-уй, 148-хонадон

ВАКОЛАТЛИ ОРГАН
Ўзбекистон Республикаси Рақамли технологиялар вазирлиги ҳузуридаги Ахборотлаштириш ва телекоммуникациялар соҳасида назорат инспекцияси

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA

Гувоҳнома **№1564147**

Faoliyat turi

Оммавий ахборот воситаси сифатида фаолиятни амалга ошириш

Qo'shimcha ma'lumotlar

ҚЎШИМЧА МАЪЛУМОТЛАР

Оммавий ахборот воситасининг номи	Fanlararo ilmiy tadqiqotlar
Оммавий ахборот воситасининг тили	o'zbek, rus va ingliz tili
Оммавий ахборот воситасининг тури	Журнал

ТАРҚАТИЛИШ ҲУДУДИ ВА ШАКЛИ

Тарқатилиш ҳудуди ва шакли	Республика миқёсида
Viloyat	
Тарқатилиш шакли	Онлайн

License SYSTEM

05.05.2026 18:22
TAQDIM ETILGAN SANA